# Mavzu: Bosh harflar imlosi. Ko'chirish qoidalari

O'qituvchi: Ruzikulova G. F.

# BOSH HARFLAR IMLOSI

**Kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi, taxallusi bosh harf bilan yoziladi: *Sobirov Zokirjon Shukurjonovich, Abdurauf Fitrat* kabi.**

ACADEMIC IHT LYCEUM

TIIAME

MAMLAKATLAR, SHAHARLAR, QISHLOQLAR, SHAHARCHALAR, DARYO, DENGIZ, TOG‘, TEPA, ADIR NOMLARI HAM BOSH HARF BILAN YOZILADI: *HINDISTON, MUBORAK, URGUT, TENTAKSOY, QO‘NG‘IRTOG‘, QASHQADARYO, QORA DENGIZ* VA HOKAZO.

**Korxona, tashkilot, muassasa nomlari, adabiyot va san'at asarlari, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari, transport vositalarining nomlari bosh harf bilan yoziladi:** ***«Malika» firmasi, «Sharq» nashriyot-matbaa konserni, «O'zqishloqxo'jmashxolding» kompaniyasi, «Damas» avtomobili, Ko'kdumaloq kompressor stansiyasi, Xorazm chanqovbosti ichimliklar zavodi, Qizilqum fosforit kombinati, «Amudaryo» jurnali, «Shaytanat»*** **asari va hokazo.**

## Muhim tarixiy sanalar va bayramlar nomi bosh harf bilan yoziladi:

***Mustaqillik kuni, Navro‘z bayrami, Xotira kuni.***

**Oliy darajadagi davlat tashkilotlari, xalqaro birlashmalar nomi bosh harf bilan yoziladi: *O‘zbekiston Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Raisi, Yevropa Ittifoqi Kengashi* kabi.**

ACADEMIC IHT LYCEUM

TIIAME

***Mudofaa vazirligi, Davlat test markazi, «Umid» jamg‘armasi, Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi* kabi tashkilotlar nomining birinchi harfi bosh harf bilan yoziladi.**

**Oliy darajadagi unvonlar va mukofotlar nomi tarkibidagi so‘zlar har biri bosh harflar bilan yoziladi:**
***«O‘zbekiston Qahramoni» unvoni, «Oltin Yulduz»*** **medali.**

**Shuningdek,** ***«Sog‘lom avlod uchun»*** **ordeni,** ***«Shuhrat»*** **medali singari mukofotlarning birinchi so‘zi bosh harf bilan yoziladi.**

**Har bir gap bosh harf bilan boshlanadi: *Har qanday intilish, izlanish, ijod xalq manfaatlariga xizmat qilsagina u qadrlidir.* (A. Oripov)**

# KO‘CHIRISH QOIDALARI

**Satrga sig‘may qolgan so‘zlar keyingi qatorga bo‘g‘in asosida ko‘chiriladi: *tad-birkor, tadbir-kor, kol- lej, ma’-lum, ta’-lim* kabi (tutuq belgisi birinchi bo‘g‘inda qoldiriladi).**

**So‘z boshida kelgan yolg‘iz unli hech vaqt yakka o‘zi qoldirilmaydi: *e’-lon* emas *e’lon*, *u-ka* emas *uka*, *mudofa-a* emas *mudo-faa* singari.**

So‘z tarkibida ikki undosh yonma-yon kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko‘chiriladi: *dia-gramma, mono-grafi-ya, foto-grafiya* kabi.

***Sh, ch, ng* harflar birikmasi doim birgalikda yoziladi: *ko-shona, pu-chuq, de-ngiz* kabi.**

Qisqartma so‘zlar, yil, oy, raqam bilan yozilgan sonlar keyingi qatorga ko‘chirilmaydi: *O‘zMU, ToshDPU, 2001, 19, XX* kabi.

***10-«A» sinf 26-uy, 100 gr, 25 sm, 10 mm*** **kabi ko‘rinishdagi birikmalar ham bir-biridan ajratilmaydi.**

# E’TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!